

60411201-Menejment: turizm biznesini boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi

60411201-Menejment: turizm biznesini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

60411201-Menejment: turizm biznesini boshqarish - fan va turizm sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo'lib, turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tashkiliy boshqaruv tarkibini shakllantirish, biznes strategiyasini tahlil qilish, maxsulot va xizmatlarni reklama qilish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish, turizm korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish, xizmatlar bozorini segmentlash, turizm mahsulot iste'molchilarini xulq-atvorini o'rganish, turizm korxonalari faoliyatini boshqarish, raqobatbardoshlik holatini tahlil qilish, turizm korxonalari dasturini tuzish, turli mulkchilik shaklidagi turistik va xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik kobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari va soha mutaxassislarining taklif va talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahiliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.